QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 26-iyul | 243-4-60-Q/24 | Koson tuman hokimligi

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2024-yil 18-iyuldagi VI-76-86-4-0-K/24-sonli qarori haqida

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2024-yil 18-iyuldagi VI-76-86-4-0-K/24-sonli qarorini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2024-yil 18-iyuldagi VI-76-86-4-0-K/24-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (A.Xazratov) qaror asosida tuman hokimligining budjetdan tashqari hisob raqamiga kelib tushgan 11 477,00 (o’n bir million to’rt yuz yetmish yetti) ming so‘m mablag‘ni Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining **(40012286010229706520008400 1)** maxsus hisob raqamiga 2024-2025-yillar kuz-qish mavsumini betalofat o‘tkazish maqsadida, tumandagi ko‘p qavatli uylarda joylashgan elektr shitlarni ta’mirlash harajatlari uchun o‘tkazib bersin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (O.Jabborov) mablag‘larni belgilangan tartibda moliyalashtirishni ta’minlasin.

4.Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (X.To’rayev)ga ajratilgan mablag‘dan belgilangan tartibda to‘g‘ri va samarali foydalanish topshirilsin.

5.Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**